ABATOV DOSTON RO'ZIMUROD O'G'LI

QASHQADARYO XALQ DOSTONLARI ONOMASTIKASI
**(Qora baxshi Umirov, Umir shoir Safarov, Qodir baxshi Rahimov
dostonlari misolida)**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

ABATOV DOSTON RO'ZIMUROD O'G'LI

QASHQADARYO XALQ DOSTONLARI ONOMASTIKASI
(Qora baxshi Umirov, Umir shoir Safarov, Qodir baxshi Rahimov
dostonlari misolida)

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2363 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jabborov Eshpo'lat** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Abuzalova Mehriniso Kadirovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil " 05 " avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. (Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 228-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.).

Dissertatsiya avtoreferati 2024- yil " 19 " 07 kuni tarqatildi (2024-yil " 19 " 07 dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).

G.X. Ernazarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.E. Yuldosheva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

O.U. Shukurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida onomastika sohasining lingvokulturologik, pragmalingvistik, etnolingvistik hamda psixolingvistik xususiyatlarini yoritish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan biriga aylanib bormoqda. Onomastik birliklar o'zi mansub bo'lgan xalqning o'tmishi, milliy-tarixiy an'analari, urf-odatlari, qadriyatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy birlik sifatida til tizimi taraqqiyoti va takomilida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli jahon tilshunosligida folklor asarlari matnidagi onomastik birliklarning lingvistik xususiyatiga doir ko'plab nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Onomastik birliklarning lisoniy tizimdagi o'rnini aniqlamasdan turib bunday birliklarni yaxlit tizim sifatida idrok qilib bo'lmaydi. Shuningdek, xalq dostonlari onomastik birliklarining lingvopoetik qiymatini ko'rsatib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda xalq ijodining o'lmas namunalari bo'lgan xalq dostonlari matnidagi onomastik birliklarning antroponim, toponim, zoonim, astronim kabi tarkibiy qismlarini lingvistik paradigmalar asosida ochib berish onomastik birliklar bilan aloqador bo'lgan hudud dialekti, tarixi, etnografiyasi, tabiati, ijtimoiy hayotini yoritishda ahamiyatlidir. Onomastik birliklarning har biri xalq tomonidan yaratiladi va ular o'sha xalqning o'tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning ildizlarini chuqurroq bilish, tarixiy-evolyutsion bosqichlarni anglash imkonini berishi nuqtayi nazaridan ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida milliy madaniy boyligimiz bo'lmish xalq dostonlaridagi onomastik birliklarning nafaqat tilshunosligimiz, balki tariximiz uchun ham muhim ahamiyatga molik ekanligi ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasini topmoqda. "Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o'zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili deb bilamiz. Shu ezgu maqsad yo'lidagi amaliy harakatlarimiz tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo'llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko'zgusiga aylanmoqda"[1]. Yuqorida ta'kidlanganidek, xalq dilining chinakam ko'zgusi sanalgan poetik tafakkurining beqiyos xazinasi bo'lmish xalq dostonlaridagi onomastik birliklarni leksik-semantik, struktur, leksikografik aspektda ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari va mazkur faoliyatga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliyotga tatbiq etishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalq dostonlaridagi onomastik birliklar tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, adabiyot, tarix kabi bir qator fanlar uchun tadqiqot obyekti hisoblanadi, shuning uchun ham xalq dostonlaridagi onomastik birliklarga bo'lgan qiziqish ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, Dj.Mill, B.Rassel, O.Yespersen, Y.Kurilovich, P.A.Florenskiy, A.F.Losev, A.A.Reformatskiy, V.V.Vinogradov singari olimlar onomastika sohasida e'tiborga molik ishlarni amalga oshirganlar[2]. G.A.Xaburgayev, T.D.Suslova, Y.A.Karpenko, O.I.Fonyakova, N.I.Zubov, V.I.Suprun, L.V.Shulunova, R.G.Yagafarov, V.V.Anisimov, A.A.Novichikov kabi olimlarning ishlarida folklor va badiiy asarlar matnidagi onomastik birliklarning tekshirish obyekti bo'lganligini kuzatish mumkin[3].

O'zbek tilshunosligida xalq dostonlari matnidagi onomastik birliklar tahliliga bag'ishlangan samarali ishlar yetakchi o'rinni egallab bormoqda. Xususan, S.Tursunov, Z.Xolmonova, I.Xudoynazarov, B.To'ychiboyev, D.Andaniyazova, Q.Olloyorov, Y.Hojiyev, D.Ashurov, B.Yunusova tadqiqotlarida folklor asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik, grammatik, semantik-struktur, konseptual va leksikografik hamda lingvokulturologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan[4]. Biz olib borayotgan tadqiqot yuqoridagi ishlardan quyidagi:

[2] Сызранова Г.Ю. Ономастика. Учебное пособие. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – С. 3.

[3] Хабургаев Г.А. Этнонимия «Повести временных лет» // Г.А.Хабургаев. – М.: МГУ, 1979. – 232 с.; Суслова Т.Д. Ономастикон В.П.Катаева (На материале тетрологии «Волны Черного моря») // Т.Д.Суслова // Русская ономастика. – Одесса: Изд-во Одесского гос. Ун-та, 1984. – С. 146-151.; Карпенко Ю.А. Имя собственное в художественной литературе // Ю.А.Карпенко // Филологические науки. – 1986. – № 4. – С. 9-16.; Фонякова О.И. Имя собственное в художественном тексте. – Л. Изд-во ЛГУ, 1990. – 103 с.; Зубов Н.И. Теонимия древнерусская // Н.И.Зубов // Русская энциклопедия. Русская ономастика и ономастика России: словарь // под ред. О.Н.Трубачева. – М.: Школа-Пресс, 1994. – С. 221-227.; Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал. Супрун В.И. – Волгоград: Перемена, 2000. – 172 с.; Шулунова Л.В. Бурятская ономастика: Автореф. дисс. … докт. филол. наук. – М., 2000. – 30 с.; Анисимова В.В. Развитие русской антропонимики в современном русском языке: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – М., 2004. – 22 с.; Ягафаров Р.Г. Башкирский народный эпос «Алпамыша и Барсынхылу»: генезис, специфика, поэтика: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Казань, 2007. – 20 с.; Новичиков А.А. Ономастическое пространство англоязычных произведений фэнтези и способы его передачи на русский язык: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Северодвинск, 2013. – 26 с.

[4] Турсунов С. "Алпомиш" достони лексикасини ўрганишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 3. – Б. 36-38.; Холмонова З. Шайбонийхон достони лексикаси: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1998.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1998.; Тўйчибоев Б. "Алпомиш" ва халқ тили. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 160 б.; Анданиязова Д. Бадиий матнда онономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 47.; Оллоёров Қ. Хоразм достонлари ономастикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 50.; Ҳожиев Ю. "Алпомиш" достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 56.; Ашуров Д. "Алпомиш" достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. – Наманган, 2021. – 155 б.; Юунусова Б. "Алпомиш" достони ономастик бирликларининг лексик-семантик ва услубий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Наманган, 2022. – Б. 60.

1) xalqona ruh ufurib turgan Qashqadaryo xalq dostonlarining tadqiqot obyekti qilib olinishi va ulardagi onomastik birliklar saralab olinib, tahlilga tortilishi; 2) Qashqadaryo xalq dostonlari matnidagi onomastik birliklarning leksik-semantik, struktur va lingvopoetik tasnifining amalga oshirilishi; 3) dostonlar matnidagi onomastik birliklarning etimologik tasniflanishi kabi lisoniy omillar bilan farq qiladi.

Q.Olloyorov tomonidan "Xorazm dostonlari onomastikasi" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyada Xorazm dostonlari tarkibida uchraydigan atoqli otlar joy nomlari, kishi nomlari va boshqa turdagi onomastik birliklar singari lugʻaviy-maʼnoviy guruhlarga ajratilgan, xalq dostonlari tarkibida uchragan onomastik birliklarning til leksik sistemasida tutgan oʻrni aniqlangan, ularning lingvistik qiymati ochib berilgan, onomastik birliklarning tarixiy-etimologik, oʻz va oʻzlashma qatlamga oid mikrosistemalari hamda shakliy strukturalari tadqiq qilingan, ularning sodda (sodda tub, sodda yasama), qoʻshma, murakkab tiplari, bir komponentli, ikki komponentli va koʻp komponentli turlari asoslangan[5].

Tadqiqotchi J.Xolmurotova tomonidan Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari oʻrganilgan[6]. A.Xoliqov "Goʻroʻgʻlining tugʻilishi" dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq qildi[7]. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari G.Jumanazarova tomonidan maxsus tadqiq etildi[8]. Qayd etilgan tadqiqotlarda mavzuning umumiy tomoni yoritilgan boʻlsa-da, Qashqadaryo dostonchilik maktabining yirik vakillari tomonidan ijro etilgan xalq dostonlari tilida qoʻllangan onomastik birliklar monografik yoʻsinda maxsus oʻrganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Mazkur ish Qarshi davlat universitetining "Oʻzbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo xalq dostonlarida qoʻllangan onomastik birliklarning semantik, struktur va lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qashqadaryo xalq dostonlari matnida qoʻllangan antroponim, toponim, zoonim, astronim, etnonimlarni toʻplash va tizimlashtirish;

badiiy va folklor asarlarida qoʻllangan onomastik birliklarning oʻrni va ularni oʻrganishning amaliy va nazariy metodologik asoslarini yoritish;

---

[5] Оллоёров Қ. Хоразм достонлари ономастикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 50.

[6] Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм достонлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – 160 б.

[7] Холиқов А.А. "Гўрўғлининг туғилиши" достони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 24.

[8] Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 75.

jahon va dunyo tilshunosligi, turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida folklor onomastikasi muammolarining o'rganilish tarixini sharhlash;

Qashqadaryo xalq dostonlarida qo'llangan onomastik birliklarni lug'aviy-ma'noviy xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratish, ularning mavjud lingvistik hamda ensiklopedik lug'atlarda berilgan ma'nolarini takomillashtirish;

Qashqadaryo xalq dostonlarida qo'llangan onomastik birliklarning intertekstuallikni ta'minlash, ekspressivlikni ifodalash kabi lingvopoetik xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqotning obyektini qashqadaryolik baxshilar ijro etgan "Oyparcha", "Nurali va Semurg'", "Kelinoy yoki Norguloy", "Oychinor" va "Jorxun maston" dostonlaridagi onomastik birliklar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Qashqadaryo xalq dostonlaridagi onomastik birliklarning semantikasi, strukturasi va lingvopoetik xususiyatidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-etimologik, tavsiflash, tasniflash, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Oyparcha", "Nurali va Semurg'", "Kelinoy yoki Norguloy", "Oychinor" va "Jorxun maston" singari dostonlar matnidagi onomastik birliklar lug'aviy qatlamlarining sof turkiy (o'zbek) (*Ergash, Gali, To'qson*), arab (*Muhammad, Mansur, Rajab*), fors-tojikcha (*Donish, Chori, Shodmon*), aralash: arabcha+o'zbekcha (*Omongeldi, Hazratqul*), arabcha+forscha (*Soqibulbul, Olovxo'ja),* fors-tojikcha+arabcha (*Norali, Sherali, Xo'jamahmud*), o'zbekcha+forscha (*Bekmirzo, Oyparcha, Oypari*) modellardan tashkil topganligi aniqlangan;

"Oyparcha", "Nurali va Semurg'", "Kelinoy yoki Norguloy", "Oychinor" va "Jorxun maston" dostonlaridagi onomastik birliklarning yasalishida kompozitsiya usulining faolligi hamda affiksatsiya usulining nofaolligi *Xol+dor (inson nomi), Gul+zor (ko'cha nomi), Charm+gar (mahalla nomi), Gurj+iston (mamlakat nomi) Tuya+chi (qishloq nomi)* (affiksatsiya usuli), *Kalla+tosh, Oy+chinor, Oq+bet, Ko'k+buloq* (kompozitsiya usuli) singari onomastik birliklar asosida isbotlangan;

Qashqadaryo xalq dostonlaridagi onomastik birliklar tarkibiy tuzilishiga ko'ra *ot+ot (Konsoy, Zarchashma, Oyto'ti), fe'l+ot (Keldiyor, Berdiyor), ot+fe'l (Xudoyberdi), sifat+ot (Oqbosh, Ko'kbuloq), son+ot (Oltiyor)* modelli qoliplardan iboratligi asoslangan;

Qashqadaryo xalq dostonlarida qo'llangan onomastik birliklar, shundan 177 ta antroponim, 94 ta toponim, 4 ta etnonim, 18 ta zoonim, 6 ta astronim va boshqa tur birliklar aniqlanib, ularning turkiy (o'zbek), arab, fors-tojik tillardagi lug'aviy ma'nolari, nomlanish tamoyillari hamda ularning matndagi tasvirni tiniqlashtirish, onomastik metaforani shakllantirish singari lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

o'zbek onomastikasining o'rganilishida "Oyparcha", "Nurali va Semurg'", "Kelinoy yoki Norguloy", "Oychinor" va "Jorxun maston" kabi Qashqadaryo xalq dostonlarining o'rni va lisoniy maqomi belgilangan;

Qashqadaryo xalq dostonlaridagi onomastik birliklarning ma'nolari aniqlanib, shu asosda "Qashqadaryo xalq dostonlari onomastik birliklarining qisqacha izohli lug'ati" yaratilgan hamda oliy o'quv yurtlarining bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalari uchun "O'zbek tili onomastikasi", "Semasiologiya", "Leksikografiya", "Lingvokulturologiya" fanlarining mashg'ulotlarini tashkil etish va o'quv adabiyotlarini yaratishda muhim manba bo'la olishi asoslangan;

Qashqadaryo xalq dostonlari matnidagi onomastik birliklarning tasnifi, lug'aviy qatlamlari va leksik-semantik, tarkibiy tuzilishi, yasalishi va lingvopoetik xususiyatlariga oid xulosalar xalq dostonlari konkordansi uchun zamin hozirlaydi hamda o'zbek milliy til korpusining onomastik fondini yaratishda lingvistik manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan onomastik birliklar va materiallar o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish va bu borada tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berganligi, tarixiy-qiyosiy, tarixiy-etimologik, tavsiflash, tasniflash, statistik tahlil usullaridan foydalanilganligi, nazariy fikr hamda xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek onomastikasini, shu jumladan, Qashqadaryo xalq dostonlari onomastikasi haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitishi, ishning ilmiy tahlili, nazariy qarash va usullaridan boshqa folklor asarlari onomastik birliklarini o'rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, to'plangan onomastik birliklar, amalga oshirilgan tahlillar hamda ulardan olingan xulosalardan "O'zbek onomastikasi", "O'zbek dialektologiyasi", "O'zbek adabiy tili tarixi", "Leksikologiya" va "Leksikografiya", "Lingvokulturologiya" sohalarini o'qitishda, "Qashqadaryo xalq dostonlari onomastik birliklarining qisqacha izohli lug'ati"ni tuzishda hamda o'zbek milliy til korpusining onomastik fondini yaratishda lingvistik manba vazifasini bajarishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qashqadaryo dostonlarida qo'llangan onomastik birliklarni tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"Oyparcha", "Nurali va Semurg'", "Kelinoy yoki Norguloy", "Oychinor" va "Jorxun maston" dostonlaridagi onomastik birliklarning lug'aviy-ma'noviy guruhlari, yasalish usullari, grammatik tuzilishi va struktural modellari, etimologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalardan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" hamda FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzularidagi fundamental va amaliy-ilmiy loyihalarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 2-iyundagi №17.01/75 ma'lumotnomasi). Natijada onomastik birliklarning yasalish usullari, model tiplari, oddiy so'z yasalishi hamda atab qo'yilgan nomlarning yasalishidagi farqli jihatlarni takomillashtirish imkonini bergan;

Qashqadaryo xalq dostonlaridagi onomastik birliklar tarkibiy tuzilishiga ko'ra ot+ot (Konsoy, Zarchashma, Oyto'ti), fe'l+ot (Keldiyor, Berdiyor), ot+fe'l (Xudoyberdi), sifat+ot (Oqbosh, Ko'kbuloq), son+ot (Oltiyor) modelli

qoliplardan iboratligi asoslanganiga oid ilmiy xulosalardan Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining "O'zligimiz timsoli", "Najot bilimda", "Mening qahramonim", "Bir osmon ostida" kabi mavzulardagi radioeshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 16-maydagi 17-05/89-son ma'lumotnomasi). Natijada keltirilgan ma'lumotlar radioeshittirishlarning mazmunli bo'lishiga, taqdim etilgan ma'lumotlarning ilmiy manbalar bilan boyitilishiga va uni keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etish imkonini bergan;

Qashqadaryo xalq dostonlarida qo'llangan onomastik birliklar, antroponim, toponim, etnonim, zoonim, astronim va boshqa tur birliklari aniqlanib, ularning turkiy (o'zbek), arab, fors-tojik tillardagi lug'aviy ma'nolari, tarixiy-etimologik qatlamlari, semantik xususiyatlari, nomlanish tamoyillari bilan bog'liq ilmiy xulosalardan "Qashqadaryo xalq dostonlari onomastik birliklarining qisqacha izohli lug'ati" (ISBN 978-9910-9727-5-1)ni tayyorlashda foydalanilgan. Natijada o'zbek tilidagi xalq dostonlari onomastik birliklarining qo'llanishiga aniqlik kiritilgan va lug'atning izohli variantini yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga oid 16 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta izohli lug'at, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 140 sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari tavsiflangan, olingan natijalarning nazariy hamda amaliy ahamiyati, tadqiqotning joriy qilinishi, natijalarning e'lon qilinganligi, tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **"Xalq dostonlaridagi onomastik birliklarning tadqiqi masalasi"** deb nomlangan birinchi bobining "**Onomastik birliklarning xorijiy tilshunoslikda o'rganilishi**" mavzusidagi birinchi faslida jahon tilshunosligida bevosita onomastik birliklar tadqiqiga oid ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning ishlariga munosabat bildirilgan. Jumladan, Dj.Mill, B.Rassel, O.Yespersen, Y.Kurilovich, P.A.Florenskiy, A.F.Losev, A.A.Reformatskiy, V.V.Vinogradov kabi tadqiqotchilar onomastika sohasi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan bo'lsa, A.V.Superanskaya, N.V.Podolskaya, V.A.Nikonov, N.I.Tolstoy, O.N.Trubachev, V.D.Bondaletov, M.V.Gorbanevskiy tomonidan onomastikaning umumiy muammolari tadqiq etilgan va etilmoqda[9].

---

[9] Сызранова Г.Ю. Ономастика. Учебное пособие. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – С. 3-4.

10

Onomastika sohasining asosiy tarixiy jarayonlariga A.M.Selishev, P.T.Porotnikov, V.K.Chichagov, L.M.Shetinin, O.N.Trubachevning ishlarida tavsif berildi, onomastik birliklarning alohida turlariga N.A.Petrovskiy, A.V.Superanskaya, B.O.Unbegaun, Y.A.Fedosyuk tadqiqotlarida leksikografik ta'rif berildi. Atoqli otlarning badiiy matndagi o'rni, faolligi S.I.Zinin, E.B.Magazanik, V.N.Mixaylov, O.I.Fonyakova, M.V.Bobrova, I.M.Ganjina, M.Y.Chernenokning ishlarida qayd etildi[10].

Badiiy matn hamda folklor asarlari tarkibidagi onomastik birliklarni o'rganish borasida quyidagi xorijiy tilshunoslarning tadqiqotlari e'tirofga loyiq. Jumladan, G.A.Xaburgayev, T.D.Suslova, Y.A.Karpenko, O.I.Fonyakova, N.I.Zubov, V.I.Suprun, L.V.Shulunova, R.G.Yagafarov, V.V.Anisimov, A.A.Novichikovlarning tadqiqotlarida folklor, badiiy va tarixiy asarlar onomastikasi o'rganilganligini kuzatish mumkin[11].

Bobning ikkinchi fasli **"Onomastik birliklarning turkiy tilshunoslikda o'rganilishi"** deb nomlangan. Turkologiyada, asosan, 1950-yildan keyingi davrlarda onomastika bo'yicha bir qator dissertatsiyalar yozildi. Ularni mavzu jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin: 1) toponimik tavsifdagi tadqiqotlar[12], 2) antroponimik tavsifdagi tadqiqotlar[13]; 3) gidronimik tavsifdagi tadqiqotlar[14].

Turkiy tillar onomastikasi, xususan, tarixiy antroponimikaning shakllanishi va taraqqiyotiga turkiyshunoslardan T.Januzaqov, A.Idrisov, T.X.Kusimova, Z.Sadixov, A.G.Shayxulov, A.Pashayev, M.Chobanov, G.F.Sattarov, S.Ataniyazov, B.Dosjanov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar[15].

---

[10] Сызранова Г.Ю. Ономастика. Учебное пособие. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – С. 247.

[11] Хабургаев Г.А. Этнонимия «Повести временных лет» // Г.А.Хабургаев. – М.: МГУ, 1979. – 232 с.; Суслова Т.Д. Ономастикон В.П.Катаева (На материале тетрологии «Волны Черного моря») // Т.Д.Суслова // Русская ономастика. – Одесса: Изд-во Одесского гос. Ун-та, 1984. – С. 146-151.; Карпенко Ю.А. Имя собственное в художественной литературе // Ю.А. Карпенко // Филологические науки. – 1986. – № 4. – С. 9-16.; Фонякова О.И. Имя собственное в художественном тексте. – Л. Изд-во ЛГУ, 1990. – 103 с.; Зубов Н.И. Теонимия древнерусская // Н.И.Зубов // Русская энциклопедия. Русская ономастика и ономастика России: словарь // под ред. Трубачева О.Н. – М.: Школа-Пресс, 1994. – С. 221-227.; Супрун В.И. Ономастическое поле русского языка и его художественно-эстетический потенциал. Супрун В.И. – Волгоград: Перемена, 2000. – 172 с.; Шулунова Л.В. Бурятская ономастика: Автореф. дисс. … докт. филол. наук. – М., 2000. – 30 с.; Анисимова В.В. Развитие русской антропонимики в современном русском языке: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – М., 2004. – 22 с.; Ягафаров Р.Г. Башкирский народный эпос «Алпамыша и Барсынхылу»: генезис, специфика, поэтика: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Казань, 2007. – 20 с.; Новичиков А.А. Ономастическое пространство англоязычных произведений фэнтези и способы его передачи на русский язык: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Северодвинск, 2013. – 26 с.

[12] Абдимуратов К. Топонимика Каракалпакии: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Нукус, 1966. – 23 с.; Юзбашев Р.М. Топонимическая реконструкция ландшафтов Азербайджана. Топонимика на службе географии // Вопросы географии. – М.: Мысль, 1979. – С. 110.

[13] Жанузаков Т. Лично-собственные имена в казахском языке: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Алма-ата, 1960. – С. 19.

[14] Камалов А.А. Гидронимия Башкирии: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Уфа, 1969. – 19 с.

[15] Жанузақов Т. Қазақ есимдериниң тарихы. – Алматы: Ғылым, 1971. – С. 216.; Идрисов А. Кыргыз тилиндаги ысмдар. – Фрунзе: Мектеп, 1971. – Б. 17-43.; Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Уфа, 1975. – 22 с.; Садихов З. Личние имена в азербайджанском языке: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Баку, 1975.; Шайхулов А.Г. Татарские и башкирские личные имена тюркского происхождения. – Уфа, 1983. – С. 11-31.; Пашаев А.М. Прозвища в азербайджанском языке: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Баку, 1987. – С.18.; Чобанов М.Н. Азербайчан антропонимикасынин эсаслари. Тбилиси, 1987.; Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. – Казань: КазДУ, 1990. – 278 с.; Атаниёзов С. Туркмен адам атларининг душундиришли созлуги. – Ашхабат: Туркменистан, 1992. – Б. 265.; Досжанов Б. Древние антропонимы в казахском языке: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Астана, 2001. – 26 с.

Turkologiyada bevosita folklor asarlari onomastikasi, leksikografiyasi va lingvopoetikasiga doir qiyosiy tadqiqotlar ham olib borildi[16].

"Onomastik birliklarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi" deb nomlangan uchinchi faslda o'zbek tilshunosligida onomastik birliklarning o'rganilishi haqida fikr yuritiladi.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida bevosita folklor asarlari va tarixiy-badiiy matnlardagi onomastik birliklarni o'rganish bo'yicha D.Abdurahmonov, H.Bektemirov, A.Ishayev, S.Tursunov, Sh.Yoqubov, I.Xudoynazarov, S.Rahimov, Z.Xolmonova, J.Xolmurotova, B.To'ychiboyev, R.Nuriddinova, M.Tillayeva, R.Xudoyberganov, N.Mahmudov, G.Jumanazarova, Y.Avlakulov, N.Husanov, D.Xudoyberganova, D.Andaniyazova, Q.Olloyorov, M.Turdibekov, D.Yuldashevlarning tadqiqotlarini qayd etish o'rinlidir[17]. Mazkur tadqiqotlar o'zbek nomshunosligida o'zbek onomastikasi va antroponimikasi materiallarini tadqiq etishda qimmatbaho manba vazifasini o'taydi.

O'zbek nomshunosligida hozirga qadar folklor asarlari leksikasi, onomastikasi, sintaksisi, uslubiyati va lingvopoetikasi, lingvostatistikasi tadqiqiga doir ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, I.Xudoynazarov Ergash Jumanbulbul

---

[16] Алпамыс-батыр: Тексты и переводы // Под ред. М.О.Ауэзова и Н.С.Смирновой. Алматы, 1961. – 360 с.; Киреев А.Н. Башкирский народый героический эпос. – Уфа: Башкирское книжное издательство, 1970. – 302 с.; Сулейманов А.М. Башкирская версия эпоса об Алпамыше и легенды о нем // Материалы международной конференции «Эпос «Алпамыш» и народное творчество». – Термиз: Фан, 1999. – С. 126-129.; Сулейманов А.М. Башкирские народные бытовые сказки: Особенности сюжетного состава, типологии персонажей, жанровой проблематики и поэтики: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1991. – 426 с. Ахмадов Р. Таджикский вариант эпоса «Алпамыш» // Эпос Алпамыш и эпическое творчество народов мира: Материалы международной конференции. Термиз: Фан, 1999. – С. 129.; Ахметшин Б.Г. Горнозаводской фольклор Башкортостана и Урала. – Уфа: Китап, 2001. – 288 с.; Байзаков Ж. Лексические особенности языка казахского героического эпоса «Алпамыс»: Дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1967. – 230 с.; Сыдыков Т. Казахские версии «Алпамыса»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алматы, 1958. – 24 с.

[17] Абдураҳмонов Д., Бектемиров Ҳ. Ўзбек халқ достонлари ономастикаси. Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 110-111.; Ишаев А. Достонлар тилининг баъзи хусусиятлари // Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 173-179.; Турсунов С. "Алпомиш" достони тилидаги антропонимлар // Антропонимика муаммоларига бағишланган регионал йиғилиш докладлари тезислари тўплами. – Жиззах, 1985. – Б. 58-60.; Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 24.; Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул достонлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 26.; Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 25.; Холмонова З. Шайбонийхон достони лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 24.; Холмуротова Ж. Шимолий Хоразм достонлари лексикасининг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 126.; Тўйчибоев Б. "Алпомиш" ва халқ тили. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – Б. 160.; Нуриддинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 20.; Тиллаева М. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 26.; Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 146.; Маҳмудов Н. "Алпомиш" достони лингвопоэтикасига чизгилар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2010. – Б. 3-8.; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 75.; Авлакулов Я. Ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – Б. 22.; Ҳусанов Н. XV аср Ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2014. – Б. 243.; Худойберганова Д., Анданиязова Д. Абдулла Қодирий ва номлар бадиияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. № 3. – Б. 25.; Анданиязова Д. Бадиий матнда зоонимлар лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – №4. – Б. 73-80.; Оллоёров Қ. Хоразм достонлари ономастикаси: Филол. фан. бўйича фалс. Докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 50.; Турдибеков М. "Шажараи турк" асари ономастикаси. – Тошкент: Нодирабегим, 2020. – Б. 103.; Юлдашев Д. Тарихий антропонимларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 76.

ijrosidagi dostonlarda qo‘llangan antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlarini[18], Q.Olloyorov Xorazm dostonlari onomastikasini[19], R.Rasulov "Alpomish" dostonidagi so‘zlarning sintaktik aloqasini[20], S.Yuldosheva "Alpomish" dostoni poetikasini[21], I.Yormatova o‘zbek qahramonlik eposi poetikasini[22], Sh.Mamadiyev o‘zbek xalq dostonlariga xos uslubiy figuralarni[23], G.Jumanazarova Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari lingvopoetikasini[24], Y.Hojiyev "Alpomish" dostonidagi shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur, konseptual va leksikografik xususiyatlarini[25], D.Ashurov "Alpomish" dostonining lingvokulturologik xususiyatlarini[26], B.Yunusova "Alpomish" dostoni onomastik birliklarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini[27] tadqiq etdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Qashqadaryo xalq dostonlaridagi onomastik birliklarning lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari"** deb nomlanadi. Bobning **"Dostonlardagi antroponimlarning lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari"** deb nomlangan birinchi faslida xalq dostonlari onomastikasi, shu jumladan, antroponimlarga bag‘ishlangan ishlarda kishi nomlarini lug‘aviy-ma’noviy guruhlarga ajratish masalasi haqida fikr yuritildi.

Qashqadaryo xalq dostonlaridagi antroponimlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganishimiz mumkin:

1. Tarixiy shaxs nomlari.
2. Laqab nomlar.
3. Badiiy qahramon nomlari.
4. Mifik va diniy-situativ nomlar.

Ana shu asosda Qashqadaryo xalq dostonlaridagi kishi nomlarining tahlili haqida qisqacha to‘xtalamiz.

1. Tarixiy shaxs nomlari. Xalq dostonlari onomastikasida kishi nomlari (antroponimlar) alohida guruhni tashkil etadi va ular o‘ziga xos lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlarga ham ega. Dostonlar matnida qo‘llangan antroponimlar birinchi

[18] Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул достонлари мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 26.
[19] Оллоёров Қ. Хоразм достонлари ономастикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 50.
[20] Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Ташкент, 1975. – 19 с.
[21] Юлдашева С. Поэтика узбекского народного героического эпоса «Алпамыш»: Автореф. дисс. … канд. фил. наук. – Ташкент, 1984. – 20 с.
[22] Ёрматова И. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси поэтикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – Б. 25.
[23] Мамадиев Ш. Ўзбек халқ достонлари тилида стилистик фигуралар: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Самарқанд, 2007. – Б. 26.
[24] Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – Б. 75.
[25] Ҳожиев Ю. "Алпомиш" достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 56.
[26] Ашуров Д. "Алпомиш" достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Наманган, 2021. – 155 б.
[27] Юунусова Б. "Алпомиш" достони ономастик бирликларининг лексик-семантик ва услубий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Наманган, 2022. – Б. 60.

galda, odatdagi nomlar kabi biror shaxsni boshqasidan farqlab, ajratib ko'rsatish vazifasini bajaradi. Shuningdek, ular voqealar silsilasi bilan turli etnografik, tarixiy, tarixiy-lingvistik va stilistik ma'nolarni ham o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Nomlarda doston syujeti bilan bog'liq davr, xalqlarning urf-odatlari, yashash tarzi, tildagi eski unsurlarning ifodalanishini ham anglab yetish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ayrim hollarda doston qahramonlarini mukammalroq ta'riflash maqsadida tarixiy shaxslar nomlari yoki ularning taxallus va laqablari keltiriladiki, ular shu hudud bilan bog'liq voqealarni anglatishda muhim rol o'ynaydi.

Qashqadaryo xalq dostonlari antroponimikasi tizimida tarixiy shaxslar sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan hukmdorlar, olimlar, din peshvolarining ismlari faol qo'llanishini ko'rish mumkin. Qashqadaryo dostonlari tilida *Bobur, Shayboniy, Temurlang, Hazrati Ali, Bibi Maryam, Bahovuddin, Imomi A'zam, Muhammad (s.a.v.), Iso, Muso, Mustafo, Hotam, Sulaymon, Yusuf, Ya'qub* kabi tarixiy shaxs nomlari uchraydi.

2. Laqab nomlar. Professor E.Begmatovning antroponimlarga bag'ishlangan monografik ishida laqablarga katta o'rin berilgan. Olim tilshunoslik fanida o'rganilish tarixi, laqablarning mohiyati va ta'rifi, ism va laqablarning o'zaro munosabati, ism va laqablarning o'xshash va farqli tomonlari, laqablarni keng va tor ma'noda tushunish masalasi, laqablarning tasnifi singari masalalar xususida fikr yuritishga harakat qiladi. Jumladan, olim laqablarning tasnifiga to'xtalar ekan, ularni dastlab ikki guruhga ajratadi:

1. Asliy laqablar.
2. Nisbiy laqablar.

Bundan tashqari o'zbek tili tarixidagi va hozirgi tildagi laqablar materialiga tayangan holda quyidagicha tasnif etilganini kuzatamiz:

1. Shaxsning jismoniy kamchiliklari motiv bo'lgan asliy laqablar.
2. Kishilarning xarakteri va harakatidagi tipik xususiyatlarga ishora qiladigan laqablar.
3. O'xshatma laqablar.
4. Shaxsning kasb-kori, mehnat malakasi bilan bog'liq nisbiy laqablar.
5. Shaxsning qaysi urug', qabila yoki millatga tegishli ekanini ko'rsatuvchi nisbiy laqablar.
6. Shaxsning amal va unvoniga nisbat berilgan laqablar.
7. Diniy ma'noli nisbiy laqablar[28].

Dostonlar tilida qo'llangan laqab nomlar shu sohadagi tadqiqotlarda alohida mavzuviy guruh sifatida tadqiq etilganini ko'ramiz. Masalan, *Xo'ja Yusuf domla (JM), Yoqub pahlavon (JM), Bobo Zangi podachi (JM // NS), G'anibek (Jorxun maston), Donish vazir (JM), Asad mergan (JM // NS), Shodmon mergan (JM // NS // O), Ashurbek sardor (JM // NS), Sayxun usta (JM), So'ltoq (Rahmat) o'g'ri (KN), G'ulom cho'pon (KN), Sherna baxshi (KN), Xoliyor baxshi (KN), Xudoyberdi boy (KN), Hazratqul kalxat (KN), Janda mirzo (KN), Vali vazir (NS), Ko'char ko'r (NS), Shermon mahram (NS), Guldan cho'ri (NS), Malin savdogar (NS), O'tan o'tinchi (NS), Malin juhud (NS), Mengtosh jodugar (NS), Jang'il jag'-jag' (NS),*

---

[28] Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 59-74.

Chori chaqqon (NS), Durbek dobilboz (NS), Yoqub bayroqdor (NS), Qoraxon botir (NS), Shodmon chakmon (NS), Yusuf nayzaboz (NS), Ko'nak yoyandoz (NS), Olovxo'ja eshon (O), Chuvdali so'fi (O), Malla sabzifurush (O), Marday manqa (O), Rahmat ergashish (O), Mirza achish (O), Bekmirza belchishma (O), Farmon podachi (O), Bahovuddin darvozabon (O) kabi nomlar tarkibidagi *og'a, pari, cho'ri, usta, mergan, sardor, yoyandoz, jag'-jag', botir, nayzaboz, bayroqdor, chaqqon, maston, doston, boy, kalxat, sher, o'g'ri, vazir, domla, pahlavon* singari apellyativlar shaxs nomlari bilan birgalikda qo'llanilib, laqab nom maqomiga o'tgan.

3. Badiiy qahramon nomlari. Qashqadaryo xalq dostonlari tilida qo'llangan antroponimlarning ma'lum qismini badiiy qahramon nomlari sifatida alohida guruhga ajratish mumkin. Xususan, *Go'ro'g'li (JM // NS), Rustami Doston (JM // NS), Alpomish (KN), Barchin (KN), Yusuf (NS), Avazxon (NS // JM), Nuralixon (NS // JM), Tohir (KN), Zuhra (KN), Majnun (KN), Layli (KN), Hasan (KN), Husan (KN)* va boshqa nomlar shular jumlasidandir.

4. **Mifik va diniy-situativ nomlar**. Qashqadaryolik baxshilar ijrosidagi dostonlar tilida uchragan *G'ani mullabachcha (Jorxun maston), Xo'ja Yusuf domla (JM), Xo'jayi Xizir // Xidir (a.s.), Yusuf payg'ambar (NS), Muso (NS), Iso (NS), Maryam (NS), Muhammad (NS), Hotam (NS), Odam (NS), Karim (NS), Rahim (NS), Jabbor (NS), G'affor (NS), Qahhor (NS), Sattor (NS), Xo'jamuhammad (KN), Olovxo'ja eshon (O), Chuvdali so'fi (O)* kabi diniy-situativ nomlar o'rganilib, ulardan ayrimlarining izohi berildi.

Bobning ikkinchi fasli **"Dostonlardagi toponimlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari"** deb nomlangan. Bu faslda toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Qashqadaryo xalq dostonlari tilida *Termiz (O), Angar (O), Zangar (O), Nov (Yangi) shahar (O), Gurjiston (NS), Vayangan (NS), Samarqand (KN), Boysin // Boysun (KN), Tangiharam(KN), Sayrob (KN), Sherobod (KN), Pachkamar (KN), Buxoro (KN), Qandohar (KN), Qo'qon (KN), G'uzor (KN), Regar (KN), Darband (KN), Hisor (KN), Isfaxon, Qarshi (KN // JM), Sho'rob (KN), Oqdovon (KN), Konsoy (KN), Sultonrabot (KN), Tobatosh (KN)* kabi real tarixiy joy nomlari uchraydi.

Dostonlar tilida uchragan ba'zi nomlar baxshi-shoirning dunyoqarashi, bilimi va syujet rivojining talabi asosida qo'llangan bo'ladi va bunday nomlar tadqiqotlarda noreal nomlar sifatida qayd etib kelinadi. Bunday nomlarning asosiy qismi uslub talabi bilan yoki voqeani bo'rttirish va kuchaytirish maqsadida ishlatilgan bo'ladi. Ularni bugungi kunda biror hudud bilan bog'lashning iloji yo'q. Ana shu toifaga kiruvchi o'ylab topilgan (noreal) nomlar sifatida Qashqadaryo dostonlari matnida *Xidir cho'li (O), Qulon tog' (O), Ko'yi Qof (NS // JM), Chambil (NS // JM), Sunduz tog'i (NS // JM), Zarchaman cho'li (NS), Malik cho'li* (KN), *Shiram tog' (NS), Shahribarbar shahri (NS), Asqar tog' (NS // JM), Jayhun mamlakati (NS), Shahrig'ulg'ula shahri (NS), Keraga tog' (NS), Polapon tog'i (JM), Qulduston (JM), Quldus (JM), Junxay tog'i (JM) Bolxuvon (JM), Oqtosh (JM // KN), Pahlavon (JM), Arpali cho'li (JM), Hovdak ko'li (JM), Laylimkon (KN), Xidir dashti (O // NS), Zarchashma bulog'i (JM), Oqbet (KN), Oqbosh (KN), Gala (KN), Dumachovli (KN), Gilambaxt (KN), Ko'ytan (KN), Malik cho'li (KN),*

15

Qo'rg'ontosh (KN), Kallatosh (KN), Qizil qiya (KN), Qizil qoya (KN), Gilambob (KN), Chakchak tog'i (KN), Chilmochin (NS), Hovdak ko'li (O // KN, JM), Jayhun daryosi (NS), Jayhun oroli (NS), Amu // Amudaryo (JM), Zarchashma bulog'i (JM), Oydin ko'li (JM) Xidir (O), Arpa (JM), Dumachavli (KN) Misqol pari bog'i, Og'a Yunus bog'i, Eram bog'i singari toponimik birliklar uchraydi. Shuningdek, Qashqadaryo dostonlaridagi ayrim to'qima nomlar bir vaqtning o'zida bir necha obyektlarni nomlab kelganligiga ham guvoh bo'ldik. Jumladan, *Qulduston // Quldus shahri, Chambil shahri // Chambil davlati, Oqtosh shahri // Oqtosh mamlakati, Ko'ytang tog'i // Ko'ytang yaylovi // Ko'ytang darasi, Oqtog' // Oqdovon, Qo'ng'irot (joy nomi) // Qo'ng'irot (el, xalq), Jayhun mamlakati // Jayhun daryosi // Jayhun oroli, Taka yovmit shahri // Taka yovmit eli, Hovdak ko'li // Hovdak yo'li* kabi toponimik nomlar shular jumlasidandir.

Ushbu bo'limda Qashqadaryo xalq dostonlari matnida uchragan *Boysun, Buxoro, Samarqand, Tangiharam, Termiz, Sayrob, Sherobod, Qo'qon, Qarshi, G'uzor, Darband, Hisor, Qandahor* kabi real nomlarga izoh berildi.

Bobning uchinchi fasli "**Dostonlardagi boshqa tur onomastik birliklarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari**"ni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu faslda *Savr (NS // JM // O), Hulkar (NS // KN), Oy (NS), Hut (NS // O), Hamal (NS), Yetti qaroqchi (KN)* kabi astronimlar, *Jayron qashqa (KN), Bo'yra biya (KN), Qarri to'ri (KN), Bo'z (KN), Olmako'z (KN), To'ri ola oyoq (KN), Ko'k qashqa (KN), Ko'chil inak (KN), Boychibor // Chibor (KN), Jiyron ot // Jiyron qashqa (KN), G'irot // G'ir (NS // JM), Majnunko'k (JM), Oqbo'z (KN), Chavkar ko'k (NS), Tarlon ko'k (NS), Saman (NS), G'irko'k (NS // JM), Semurg'(NS //JM)* singari zoonimlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

"**Onomastik birliklarning tarixiy-etimologik tasnifi, struktur tahlili va lingvopoetik xususiyatlari**" deb nomlangan uchinchi bobda dostonlardagi onomastik birliklar tarixiy-etimologik jihatdan tasnif qilingan hamda ular o'z va o'zlashma qatlamlarga ajratib tahlil etilgan. Biz tahlilga jalb etgan dostonlar tilida bir qator onomastik birliklar qo'llangan bo'lib, ulardan o'z qatlamga mansub nomlarni quyidagicha guruhlarga ajratib tahlil etish mumkin: 1. Antroponimlar guruhi. 2. Toponimlar guruhi. 3. Boshqa tur onomastik birliklar guruhi.

Qashqadaryo xalq dostonlari matnida turkiy tillarga mansub antroponimlar salmoqli o'rin egallaydi. Masalan, *Ergash (KN), Jopsoq (NS), Oypari (KN), Xonimoy (KN), Bibigul (KN), Go'ro'g'li (NS // JM), Oysuluv // Suluv (KN), Oy Barchin // Barchin (KN), Ermat (KN), Bo'ritosh (KN), Alpomish (KN), Oyparcha (O), Chambar (O), Malla (O), Bekmirzo (O), Kichkintoy (O), Qag'ajon (O), Avaz // Avazxon (NS // JM), Uzumko'z (NS // JM), Qoraxon (NS), O'tan (NS), Jong'il (NS), Ko'nak (NS), Ko'char (NS // O), Mengtosh (NS), Qubbonoy (NS), Uldan (NS), Gali (NS), To'qson (O), Yomon (O), To'lak (JM)* kabi nomlar shu qatlamga kiradi.

O'zbek tiliga o'zaro tarixiy aloqalar tufayli tojik tilidan, O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi natijasida arab tilidan, arab tili orqali yahudiy tilidan, tarixiy davrlar taqozosi bilan mo'g'ul va boshqa tillardan ko'plab so'zlar kirib keldi. Qashqadaryo xalq dostonlarida uchraydigan nomlarning ko'pchiligini ana shunday o'zlashmalar tashkil qiladi. Masalan, *Olovxo'ja (O), Vazirsho (O), Rahmat (O // KN), Mansur (O // NS), Bahovuddin (O), Omon (O), Sohibjamol (O),*

Nurali (JM // NS), Misqol (JM // NS), G'ani (JM), Xidir // Xizir (JM // NS), Asad (JM // NS), Ashurbek (JM), Shohnodir (JM), Ali (JM // NS), Hasan (JM // NS), Qodir (JM // NS), Malik (JM), Murod (JM), Abdiolim (JM // KN), Mustafo (NS), Muhammad (NS), Ma'murxon (NS), Mahmud (NS), Ahmad (NS), Hotam (NS), Karim (NS), Rahim (NS), G'affor (NS), Qahhor (NS // KN), Samad (NS), Sattor (NS), Soqibulbul (NS // JM), Vali (NS), Qumri (NS), Haydar (NS), Shukuraliboy (KN), G'ulom (KN), Majnun (KN), Nazar (KN), Rajab (KN), Abdullaxon (KN), Xalil (KN), Hazratqul (KN), Janda (KN), Usmon (KN), Abdiqodir (KN) kabi nomlar shu qatlamga kiradi.

Ushbu bobda Qashqadaryo xalq dostonlaridagi o'zlashma qatlamga mansub onomastik birliklarga izohlar berilib, asar matnidan misollar keltirilgan. Buning natijasida arab tiliga mansub onomastik birliklar ko'p uchrashi va fors-tojik hamda yahudiycha o'zlashma nomlar ularga nisbatan miqdoran kamroq ekanligi aniqlandi. Xususan, *Gulnor // Gulinor* (JM // NS), *Bobo Zangi (JM), Gulisanobar (JM), Donish (JM), Xoliyor (JM // KN), Shodmon (JM // NS // O), Gulisara (JM), Guliruxsor (JM), Gulparcha (O), Xolparcha (O), Xoldorxon (O), Farmon (O // NS), Mirza (O), Shoniyoz (O), Guloyim (NS), Chori (NS), Zarkokil (NS), Sherman (NS), Gulpari (NS), Norguloy (KN), Sherdan (KN), Xo'jamahmud (KN), Farhod (KN), Dono (KN), Sherna (KN), Sherali (KN), Gulandom (KN), Pirmat (KN), Gulsim (KN), Xoldon (KN)* kabi nomlar fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lsa, *Sulaymon (NS), Yunus (NS // JM), Yusuf (NS // JM), Muso (NS), Maryam (NS), Iso (NS), Yoqub (NS // JM), Odam (NS), Ismoil (KN)* kabi nomlarning yahudiycha ekanligi aniqlanib, Qashqadaryo xalq dostonlari matnidan olingan misollar orqali dalillangan.

Bobning **"Dostonlardagi onomastik birliklarning struktur tahlili"** deb nomlangan ikkinchi faslida dostonlardagi onomastik birliklarning tuzilishiga ko'ra turlari, ularning model tiplari haqida fikr yuritilgan. Qashqadaryolik baxshilar tomonidan kuylangan xalq dostonlarida qo'llangan onomastik birliklarni tuzilishiga ko'ra uch guruhga ajratib tadqiq etish mumkin: 1) sodda tarkibli onomastik birliklar; 2) qo'shma tarkibli onomastik birliklar; 3) murakkab tarkibli onomastik birliklar.

